

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va rivojlantirish
bo'yicha loyihalarni amalga oshirish uchun davlat buyurtmasini
shakllantirish va moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi nizomni va
vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning zamonaviy axborot-
kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va rivojlantirish uchun mas'ul
bo'lgan ixtisoslashtirilgan tarkibiy bo'linmalarining shtatdagi
xodimlarini moddiy rag'batlantirish to'g'risidagi namunaviy nizomni
tasdiqlash haqida

(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y., 5-son, 54-modda,

40-son, 528-modda; 2015 y., 26-son, 338-modda, 50-son, 628-modda)

Zamonaviy axborot va telekommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish bo'yicha kompleks dasturlarni amalga oshirish samaradorligini oshirish, vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va rivojlantirish uchun mas'ul bo'lgan ixtisoslashtirilgan tarkibiy bo'linmalarining shtatdagi xodimlarini moddiy rag'batlantirish shart-sharoitlarini yaratish maqsadida, Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilar:

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va rivojlantirish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish uchun davlat buyurtmasini shakllantirish va moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi Nizom [1-ilovaga](#) muvofiq;

Vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va rivojlantirish uchun mas'ul bo'lgan ixtisoslashtirilgan tarkibiy bo'linmalarining shtatdagi xodimlarini moddiy rag'batlantirish to'g'risidagi Namunaviy nizom [2-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

2. Kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengash bir oy muddatda:

davlat buyurtmasini shakllantirish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va rivojlantirishning ustuvor loyihalarini tanlash bo'yicha Idoralararo komissiya tarkibini;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlari xodimlarining malakasi va ko'nikmalarini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar hamda ularni ishda kompyuter texnikasi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish yuzasidan attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risida» 2011 yil 27 oktyabrdagi 289-son [qaroriga](#) muvofiq vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va rivojlantirish uchun mas'ul bo'lgan ixtisoslashtirilgan tarkibiy bo'linmalarining shtatdagi xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish bo'yicha savolnomani tasdiqlasin.

3. O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi:

(3-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 27 iyundagi 171-sonli [qarori](#) tahririda o'zgarishlar O'zbekiston Respublikasi QHT, 2015 y., 26-son, 338-modda)

axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va rivojlantirish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish maqsadida davlat buyurtmasiga kiritish uchun takliflar tayyorlash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalarni ikki hafta muddatda ishlab chiqsin hamda davlat hokimiyati va boshqaruvi barcha organlariga yuborsin;

vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va rivojlantirish uchun mas'ul bo'lgan ixtisoslashtirilgan tarkibiy bo'linmalarining shtatdagi xodimlarini o'qitish va malakasini oshirish jadvalini bir oy muddatda ishlab chiqsin hamda belgilangan tartibda tasdiqlasin;

loyihalarni joriy qilishning erishilgan ko'rsatkichlari va natijalarini aniqlash, shuningdek davlat

buyurtmasining manzilli qismini aniqlashtirish va yangilash uchun davlat buyurtmasi loyihalarini o'z vaqtida shakllantirish va amalga oshirish yuzasidan har chorakda monitoring olib borsin;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va rivojlantirish uchun mas'ul bo'lgan ixtisoslashtirilgan tarkibiy bo'linmalari rahbarlarining ularga yuklangan vazifalar o'z vaqtida va sifatli bajarilishi yuzasidan ko'rilgan chora-tadbirlar natijalari to'g'risidagi hisobotlarini muntazam ravishda eshitib borsin.

4. Vazirliklar, davlat qo'mitalari, agentliklar, idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari hamda boshqa davlat boshqaruvi organlariga:

a) axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va rivojlantirish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish uchun davlat buyurtmasini shakllantirishning tasdiqlangan sxemasiga muvofiq davlat buyurtmasini shakllantirish uchun loyihalarning o'z vaqtida tayyorlanishi hamda belgilangan tartibda kiritilishini ta'minlash (Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va rivojlantirish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish uchun davlat buyurtmasini shakllantirish va moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi Nizomga ilova), bunda quyidagi masalalarga alohida e'tibor berilsin:

axborotlashtirish, idoralararo integratsiyalashgan axborot tizimlari, axborot resurslari va ma'lumotlar bazalarini shakllantirish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;

davlat boshqaruvining samaradorligi va yuridik hamda jismoniy shaxslarga interaktiv davlat xizmatlari ko'rsatish sifatining oshirilishini ta'minlovchi «Elektron hukumat» tizimini shakllantirish;

loyihalarni tugallashda erishiladigan, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari manfaatlarini uchun eng muhim va ustuvor idoralararo loyihalarni, ko'rsatkichlarni qo'llab-quvvatlash;

b) Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasi bilan birgalikda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va rivojlantirish uchun ustama haqlarni belgilash mezonlarini hisobga olgan holda 2013 yil 1 iyulgacha kadrlarni tanlash choralari ko'rsinlar, bunda quyidagilar nazarda tutilsin:

belgilangan tartibda o'tkazilgan attestatsiya natijalari bo'yicha ixtisoslashtirilgan bo'linmalarning shtatdagi xodimlari uchun belgilangan kompyuter savodxonligi darajasi talablariga muvofiqligi;

idoraviy axborot resurslari va ma'lumotlar bazalarini shakllantirish, joriy qilish va rivojlantirish, yuridik va jismoniy shaxslarga interaktiv davlat xizmatlarini, Milliy axborot tizimi doirasida integratsiyalashadigan axborot tizimlari komplekslarini o'z vaqtida joriy qilish;

axborot tizimlari, shu jumladan qog'ozsiz hujjat aylanish ulushining ko'payishini ta'minlashni hisobga olgan holda elektron hujjat aylanish tizimidan samarali foydalanishni ta'minlash;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va rivojlantirish davlat va idoraviy dasturlarida nazarda tutilgan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarish;

axborot xavfsizligi, axborot-kommunikatsiya infratuzilmasining uzluksiz ishlashini ta'minlash.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari «Axborot tizimlari va telekommunikatsiyalar masalalari kompleksi rahbari hamda Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasi raisi X.M. Mirzaxidov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri Sh. MIRZIYOEV

Toshkent sh.,

2013 yil 25 yanvar,

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va rivojlantirish bo'lmagan yilga loyihalarni amalga oshirish uchun davlat buyurtmasini shakllantirish va moliyalashtirish tartibi to'g'risida

NIZOM

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom 2013-2020 yillarda O'zbekiston Respublikasi Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish kompleks dasturini amalga oshirishni muvofiqlashtirish bo'lmagan yilga respublika komissiyasi tomonidan tasdiqlanadigan hamda Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamoasining mablag'lari, shuningdek qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va rivojlantirish loyihalarini amalga oshirish uchun davlat buyurtmasini shakllantirish va moliyalashtirish tartibini belgilaydi.

(1-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 2 oktyabrdagi 268-sonli qarori tahririda O'zbekiston Respublikasi QHT, 2013 y., 40-son, 528-modda)

2. Ushbu Nizomda quyidagi atamalar va ta'riflardan foydalaniladi:

axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va rivojlantirish loyihalarini amalga oshirish uchun davlat buyurtmasi (keyingi o'rinlarda davlat buyurtmasi deb ataladi) - ma'lumotlar banklarini saqlash, qayta ishlash va boshqarish hamda turli interaktiv xizmatlar ko'rsatish uchun davlat organlarining idoralararo integratsiyalashgan axborot tizimlarini joriy qilish, idoralararo ma'lumotlar uzatish tarmoqlarini yaratish, «Elektron hukumat» tizimini, milliy qidiruv tizimlarini va datamarkazlarni shakllantirish bo'lmagan yilga loyihalarning yagona reestri;

loyiha tashabbuskori - davlat buyurtmasi doirasida loyiha amalga oshirilishini boshlab beruvchi vazirlik, davlat qo'mitasi, agentlik, idora, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat yoki Toshkent shahar hokimligi va davlat boshqaruvi boshqa organlari;

ishchi organ - davlat buyurtmasini shakllantirish va amalga oshirish bo'lmagan yilga ishlarining muvofiqlashtirilishini amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi;

(2-bandning to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 27 iyundagi 171-sonli qarori tahririda O'zbekiston Respublikasi QHT, 2015 y., 26-son, 338-modda)

davlat buyurtmasini shakllantirish uchun Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va rivojlantirishning ustuvor loyihalarini tanlab olish bo'lmagan yilga idoralararo komissiya (keyingi o'rinlarda Komissiya deb ataladi) - kamida o'z ichida bir kishidan iborat tarkibda shakllantiriladigan va 2013-2020 yillarda O'zbekiston Respublikasi Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish kompleks dasturini amalga oshirishni muvofiqlashtirish bo'lmagan yilga respublika komissiyasi tomonidan tasdiqlanadigan komissiya;

(2-bandning beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 2 oktyabrdagi 268-sonli qarori tahririda O'zbekiston Respublikasi QHT, 2013 y., 40-son, 528-modda)

tanlov (tender) savdolari - axborot tizimlari, axborot resurslari va ma'lumotlar bazalarini joriy qilish, materiallar, dasturiy mahsulotlar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalar sotib olish uchun savdolar o'tkazilishini tashkil qilish mexanizmi;

«Elektron hukumat» tizimi - axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash yo'li bilan yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan davlat xizmatlari hamda davlat organlarining faoliyati natijalari to'g'risida axborot olish (almashish) tezkorligi va qulayligining sifat jihatdan yangi darajasini ta'minlovchi davlat organlarining faoliyatini tashkil qilish shakli;

idoralararo integratsiyalashgan axborot tizimi - davlat organlari o'rtasida axborotni yig'ish, saqlash, qidirish, qayta ishlash va foydalanishni amalga oshirish imkonini beruvchi axborot

resurslari, axborot tizimlari va aloqa vositalarining tashkiliy jihatdan tartibga solingan majmui;

idoralararo maâ€™lumotlar uzatish tarmogâ€™i â€” foydalanuvchilarga davlat resurslaridan masofadan foydalana olishni va ushbu resurslardan jamoa boâ€™™ lib foydalanishni taâ€™™ minlovchi davlat organlari oâ€™™rtasida hududiy jihatdan boâ€™™ lib joylashtirilgan maâ€™™lumotlarni qayta ishlash tizimlari, telekommunikatsiya vositalari va (yoki) tizimlarining oâ€™™zaro bogâ€™™liq yigâ€™™indisi;

milliy qidiruv tizimi â€” Internet tarmogâ€™™ida axborotni qidirish imkoniyatini taqdim etuvchi tegishli interfeysga ega dasturiy-apparat kompleksi;

datamarkaz â€” davlat organlarining manfaatlarida idoralararo xarakterdagi axborotni qayta ishlash, saqlash va tarqatish boâ€™™yicha hisoblash resurslari, axborot tizimlari vositalari va maâ€™™lumotlarini birlashtirilgan holda saqlash va joylashtirish uchun ixtisoslashtirilgan texnologik maydoncha.

3. Davlat buyurtmasi idoralararo integratsiyalashgan axborot tizimlari, axborot resurslari va maâ€™™lumotlar bazalari, idoralararo maâ€™™lumotlar uzatish tarmoqlarini joriy qilish va rivojlantirish boâ€™™yicha loyihalarni amalga oshirishga yoâ€™™naltirilgan va erishilgan koâ€™™rsatkichlarni har chorakda aniqlashtirgan hamda davlat buyurtmasining manzilli qismini yangilagan holda har yillik asosda shakllantiriladi.

4. Davlat buyurtmasi loyihalarning maqsadlari, vazifalari, yoâ€™™nalishlari, kutiladigan natijalari va baholash qiymati, loyihani amalga oshirish uchun yillar boâ€™™yicha moliyalashtirishga boâ€™™lgan ehtiyoj toâ€™™gâ€™™risidagi maâ€™™lumotlarni oâ€™™z ichiga oladi.

5. Davlat buyurtmasi yigâ€™™ma jadvallar boâ€™™lgan tahliliy va manzilli qismlardan iborat.

6. Quyidagilar davlat buyurtmasini shakllantirishning asosiy printsiplari hisoblanadi:

axborotlashtirish sohasidagi yagona davlat siyosati amalga oshirilishini taâ€™™minlash, shuningdek loyihalarni tanlash amaliy mexanizmini shakllantirish va ularni amalga oshirish monitoringi asosida mablagâ€™™lardan samarali foydalanish mexanizmini yaratish;

davlat organlari manfaatlari uchun eng muhim va ustuvor idoralararo loyihalarni qoâ€™™llab-quvvatlash;

«Elektron hukumat» tizimini shakllantirish sohasidagi loyihalarni davlat boshqaruvi samaradorligi va yuridik hamda jismoniy shaxslarga interaktiv davlat xizmatlari koâ€™™rsatish sifati oshirilishini taâ€™™minlovchi hajmlarda birinchi navbatda moliyalashtirish;

idoralararo integratsiyalashgan axborot tizimlari, axborot resurslari va maâ€™™lumotlar bazalari, idoralararo maâ€™™lumotlar uzatish tarmoqlarini shakllantirish;

davlat organlari manfaatlari uchun loyihalarni davlat buyurtmasining manzilli qismiga kiritish;

davlat buyurtmasining maqsadli vazifasiga javob beradigan ilgari boshlangan loyihalarning tugatilishini birinchi navbatda moliyalashtirish.

Loyihalarning samaradorligi, axborotlashtirishning alohida yoâ€™™nalishlarini rivojlantirish ustuvor vazifalari, davlat organlari manfaatlari uchun loyihalarni tugatishda erishiladigan koâ€™™rsatkichlar loyihalarni shakllantirishdagi asosiy mezonlar hisoblanadi.

7. Davlat buyurtmasini shakllantirishda yirik va oâ€™™ta muhim loyihalar alohida kiritiladi, katta boâ€™™limgan bir xildagi loyihalar bir butun sifatida kiritilishi mumkin (masalan, axborot tizimlari komplekslarini yaratish, interaktiv davlat xizmatlarini joriy qilish).

8. Davlat buyurtmasi har yili 2013 â€” 2020 yillarda Oâ€™™zbekiston Respublikasi Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish kompleks dasturini amalga oshirishni muvofiqlashtirish boâ€™™yicha respublika komissiyasi (keyingi oâ€™™rinlarda Respublika komissiyasi deb ataladi) qarori bilan tasdiqlanadi.

9. Respublika komissiyasi qarorlari Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamgâ€™armasi (keyingi oâ€™rinlarda Jamgâ€™arma deb ataladi) tomonidan davlat buyurtmasi loyihalarini moliyalashtirish uchun asos boâ€™lib hisoblanadi.

(9-band Oâ€™zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 2 oktyabrdagi 268-sonli [qarori](#) tahririda oâ€™ Oâ€™ R QHT, 2013 y., 40-son, 528-modda)

II. Davlat buyurtmasining tahliliy qismini shakllantirish

10. Tahliliy qism maqsadli mablagâ€™larning kapital qoâ€™yilmalari hajmlarini asoslashni, davlat buyurtmasining samaradorligini baholashni, loyihalarni tanlab olish mezonlarini oâ€™z ichiga oladi.

11. Tahliliy qism tarkibida loyihalarning yoâ€™nalishlari (Â«Elektron hukumatÂ» tizimini rivojlantirish, idoralararo integratsiyalashgan axborot tizimlari, axborot resurslari va maâ€™lumotlar bazalarini rivojlantirish, idoralararo maâ€™lumotlar uzatish tarmoqlarini rivojlantirish) boâ€™yicha umuman davlat buyurtmasi yuzasidan mablagâ€™larning kapital qoâ€™yilmalari tarkibi belgilanadi.

Bunda loyihalar amalga oshirilganidan keyin idoralararo oâ€™zaro hamkorlik samaradorligining prognoz qilinadigan natijalari hisob-kitob qilinadi.

III. Davlat buyurtmasining manzilli qismini shakllantirish

12. Manzilli qism quyidagilar uchun amalga oshiriladigan loyihalardan iborat boâ€™ladi:

Milliy axborot tizimi doirasida Â«Elektron hukumatÂ» tizimini shakllantirish, idoraviy axborot tizimlarining integratsiyasi;

davlat organlari manfaatlari uchun idoralararo integratsiyalashgan axborot tizimlari, axborot resurslari va maâ€™lumotlar bazalarini, idoralararo maâ€™lumotlar uzatish tarmoqlarini joriy qilish;

milliy qidiruv tizimlarini joriy qilish, milliy datamarkazlarni yaratish.

13. Davlat buyurtmasining manzilli qismini shakllantirish jarayoni davlat organlari manfaatlari uchun har bir loyiha boâ€™yicha batafsil axborot tayyorlash, ustuvorligi boâ€™yicha loyihani tanlab olish va loyihalar roâ€™yxatini shakllantirishdan iborat.

14. Har bir loyiha (loyihalar guruhi) boâ€™yicha axborot loyiha tashabbuskorlari tomonidan tayyorlanadi va quyidagilarni oâ€™z ichiga oladi:

loyiha pasporti;

loyihani amalga oshirish va moliyalashtirish reja-jadvali;

davlat buyurtmasining manzilli qismini shakllantirish sanasiga loyihani amalga oshirish holati toâ€™gâ€™risida batafsil axborot.

15. Loyiha pasporti quyidagilarni oâ€™z ichiga oladi:

loyihaning maqsad va vazifalari;

texnik tasnifi;

kutilayotgan natijalar;

tashkiliy tadbirlar samaradorligini baholash va ularning koâ€™lamlari;

loyihani amalga oshirish uchun zarur mablagâ€™lar hajmi va ularga boâ€™lgan ehtiyoj;

asosiy moddiy va inson resurslarining mavjudligi.

16. Muayyan loyihani tanlab olish uni amalga oshirishning maqsadga muvofiqligi, iqtisodiy va moliyaviy samaradorligi, amalga oshirilishi va davlat organlari manfaatlarida idoralararo integratsiyalashgan

axborot tizimlari, axborot resurslari va maâ€™lumotlar bazalari, idoralararo maâ€™lumotlar uzatish tarmoqlarini joriy qilish boâ€™yicha kompleks dastur vazifalariga muvofiqligi asosida amalga oshiriladi.

17. Quyidagilar loyihaning ustuvorligini aniqlash mezonlari hisoblanadi:

loyihaning axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosatiga muvofiqligi;

dasturiy mahsulotlar va axborot tizimlari sohasidagi mahalliy ishlanmalardan foydalanish darajasi;

kutilayotgan natijalar;

loyihaning ijtimoiy ahamiyati;

loyihani amalga oshirishga tayyorlik darajasi (texnik loyiha, biznes-reja, loyiha boâ€™yicha xulosaning mavjudligi);

ishga tushirilganidan keyin foydalanish xarajatlari miqdori.

18. Har bir mezonning muhimlik darajasi axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati va davlat organlari manfaatlarini hisobga olgan holda ishchi organ tomonidan belgilanadi.

19. Loyihani tanlab olish natijalari asosida davlat buyurtmasining manzilli qismi shakllantiriladi.

IV. Davlat buyurtmasiga kiritish uchun loyihalarni tanlab olish tartibi

20. Davlat buyurtmasi loyihalarini tanlab olish oâ€™z faoliyatini jamoatchilik asosida amalga oshiruvchi Komissiya tomonidan amalga oshiriladi.

21. Komissiya tarkibiga Oâ€™zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Axborot tizimlari va telekommunikatsiyalar masalalari axborot-tahlil departamenti, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Oâ€™zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, shuningdek boshqa idoralarning vakillari kiradi.

(21-band Oâ€™zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 27 iyundagi 171-sonli [qarori](#) tahririda â€” Oâ€™z R QHT, 2015 y., 26-son, 338-modda)

22. Komissiyaning shaxsiy tarkibi kamida oâ€™n bir kishidan iborat etib shakllantiriladi, uning tarkibiga rais, uning oâ€™rinbosari va kotib kiradi, Respublika komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

(22-band Oâ€™zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 2 oktyabrdagi 268-sonli [qarori](#) tahririda â€” Oâ€™z R QHT, 2013 y., 40-son, 528-modda)

V. Davlat buyurtmasini shakllantirish muddatlari

23. Loyihalarni amalga oshirish uchun davlat buyurtmasini shakllantirish jarayoni yillik tsiklga ega va har bir yilning oxiriga yangilangan manzilli qismning tayyorlanishini taâ€™minlovchi [ilovaga](#) muvofiq sxema boâ€™yicha amalga oshiriladi.

24. Ishchi organ har yili 1 avgustgacha davlat organlariga amalga oshirilayotgan axborotlashtirishni rivojlantirish boâ€™yicha davlat siyosati, «Elektron hukumat» tizimini shakllantirish va integratsiyalashgan axborot tizimlari va boshqalarni joriy qilish vazifalari va maqsadli yoâ€™nalishlardan kelib chiqqan holda davlat buyurtmasiga kiritish uchun takliflar tayyorlash boâ€™yicha uslubiy koâ€™rsatmalarni yuboradi.

(24-band Oâ€™zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 17 dekabrda 365-sonli [qarori](#) tahririda â€” Oâ€™z R QHT, 2015 y., 50-son, 628-modda)

25. Davlat buyurtmasiga kiritish uchun takliflarni tayyorlash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

loyiha tashabbuschilari idoralararo integratsiyalashgan axborot tizimlari, axborot resurslari va maâ€™lumotlar bazalarini joriy qilish boâ€™yicha kompleks dasturlar hamda axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yoâ€™nalishlari asosida joriy yilning 1 sentyabrigacha koâ€™rib chiqish va

tanlab olish uchun ishchi organga loyihalarini taqdim etadilar;

(25-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 17 dekabrda 365-sonli [qarori](#) tahririda O'zbekiston Respublikasi QHT, 2015 y., 50-son, 628-modda)

ishchi organ joriy yilning 1 oktyabrigacha loyihalarni ko'rib chiqish uchun Komissiyaga taqdim etadi;

(25-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 17 dekabrda 365-sonli [qarori](#) tahririda O'zbekiston Respublikasi QHT, 2015 y., 50-son, 628-modda)

Komissiya majlisida joriy yilning 15 oktyabridan kechiktirmay taqdim etilgan loyihalarni ko'rib chiqadi, tanlab olingan va butlangan loyihalar davlat buyurtmasining manzilli qismiga kiritish uchun Komissiya tomonidan ma'lumot qullanadi.

(25-bandning to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 17 dekabrda 365-sonli [qarori](#) tahririda O'zbekiston Respublikasi QHT, 2015 y., 50-son, 628-modda)

Komissiya taqdim etilgan loyihalarni samarali tanlab olish maqsadida quyidagi mezonlar asosida ko'rib chiqadi:

axborotlashtirish sohasidagi loyihalarning muhimligi va ustuvorligi;

hukumat qarorlari bilan amalga oshirilishi nazarda tutilgan loyihalar;

axborot texnologiyalarini rivojlantirishning jahon miqyosini, axborotni muhofaza qilish va undan foydalanishni hisobga olgan holda, idoralararo integratsiyalashgan axborot tizimlari, axborot resurslari va ma'lumotlar bazalari, idoralararo ma'lumotlar uzatish tarmoqlarini joriy qilish bo'yicha kompleks dasturlar doirasida amalga oshiriladigan loyihalar.

Ishchi organ joriy yilning 20 oktyabridan kechiktirmasdan shakllantirilgan va butlangan davlat buyurtmasini tasdiqlash uchun Respublika komissiyasiga kiritadi.

(25-bandning to'qqizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 17 dekabrda 365-sonli [qarori](#) tahririda O'zbekiston Respublikasi QHT, 2015 y., 50-son, 628-modda)

Respublika komissiyasi joriy yilning 1 noyabridan kechikmasdan davlat buyurtmasini tasdiqlaydi.

(25-bandning o'ninchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 17 dekabrda 365-sonli [qarori](#) tahririda O'zbekiston Respublikasi QHT, 2015 y., 50-son, 628-modda)

26. Istisno tariqasida yil davomida davlat buyurtmasining manzilli qismiga kiritish uchun ishchi organ kelgusida tasdiqlash uchun Respublika komissiyasiga kiritish uchun bevosita Komissiya tomonidan ko'rib chiqiladigan loyihalarni taklif qilishi mumkin.

(26-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 2 oktyabrda 268-sonli [qarori](#) tahririda O'zbekiston Respublikasi QHT, 2013 y., 40-son, 528-modda)

VI. Davlat buyurtmasini moliyalashtirish tartibi

27. Jamg'arma mablag'lari, shuningdek qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag'lar davlat buyurtmasini moliyalashtirish manbalari hisoblanadi.

28. Ishchi organ Respublika komissiyasi tomonidan davlat buyurtmasi tasdiqlanganidan keyin loyiha tashabbuschilari bilan birgalikda belgilangan tartibda Jamg'arma mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladigan davlat buyurtmasining yangi boshlanadigan loyihalari bo'yicha tanlov (tender) savdolarini o'tkazadi.

(28-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 2 oktyabrda 268-sonli [qarori](#) tahririda O'zbekiston Respublikasi QHT, 2013 y., 40-son, 528-modda)

O'tkazilgan tanlov (tender) savdolari natijalari bo'yicha ishchi organ, loyihalar tashabbuschilari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi xizmatlar tizim integratorlari va yoki tovarlarni

(ishlar va xizmatlarni) etkazib beruvchilar o'zlarining o'rtasida belgilangan tartibda davlat buyurtmasi loyihalarini amalga oshirish uchun shartnomalar tuziladi.

(28-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 17 dekabrda 365-sonli [qarori](#) tahririda o'z o'rtasida R QHT, 2015 y., 50-son, 628-modda)

29. Qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladigan davlat buyurtmasining yangidan boshlanadigan loyihalari bo'yicha tanlov (tender) savdolari loyihalar tashabbuschilari tomonidan belgilangan tartibda o'tkaziladi.

30. Davlat buyurtmasini moliyalashtirish uchun Jamg'arma mablag'larining ajratilishi ishchi organ va Jamg'arma o'rtasida imzolangan shartnoma asosida talabnomalar bo'yicha amalga oshiriladi.

31. Davlat buyurtmasini Jamg'arma mablag'lari hisobidan moliyalashtirish ishchi organning vakolatlangan bankdagi maxsus hisob raqami orqali belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

32. Loyihalarni moliyalashtirish bajarilgan ishlar dalolatnomalari asosida loyihalarni amalga oshirish jadvaliga ko'ra bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

33. Loyiha amalga oshirilganidan keyin bajarilgan ishlarning yakunlovchi dalolatnomasini imzolash uchun ishchi organ mutaxassisleri va loyiha tashabbuschilaridan iborat qabul qilish komissiyasi tashkil etiladi.

34. Qabul qilish komissiyasi bajarilgan loyihaning texnik topshiriqqa va qo'yilgan vazifalarga muvofiqligi to'g'risida xulosa tuzadi, shuningdek davlat buyurtmasi loyihasini amalga oshirish doirasida ishlab chiqilgan, sotib olingan va joriy qilingan apparat-dasturiy komplekslar hamda dasturiy mahsulotlarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasini shakllantiradi.

Davlat buyurtmasi doirasida Jamg'arma mablag'lari hisobiga ishlab chiqilgan, sotib olingan va joriy qilingan apparat-dasturiy komplekslar hamda dasturiy mahsulotlar:

«Elektron hukumat» tizimining idoralararo infratuzilmasi (idoralararo integratsiyalashgan axborot tizimlari, axborot resurslari va ma'lumotlar bazalari, datamarkazlar, idoralararo ma'lumotlar uzatish tarmoqlari)ni joriy qilish loyihalari bo'yicha ishchi organga;

tarmoq axborot tizimlari, axborot resurslari va ma'lumotlar bazalarini joriy qilish loyihalari bo'yicha loyihalar tashabbuskorlariga topshiriladi.

Loyiha tashabbuskorlari davlat buyurtmasi doirasida amalga oshirilgan axborot tizimlari, axborot resurslari va ma'lumotlar bazalarining keyingi kuzatilishi va qo'llab-quvvatlanishini ta'minlashlari kerak.

35. Qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalardan olingan mablag'lar hisobiga loyihalarni moliyalashtirish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

VII. Davlat buyurtmasining bajarilgan loyihalari monitoringi

36. Ishchi organ davlat buyurtmasining bajarilgan loyihalari doirasida amalga oshirilgan axborot tizimlari, axborot resurslari va ma'lumotlar bazalarini keyingi kuzatish va qo'llab-quvvatlash holatining monitoringini olib boradi.

37. Monitoring natijalari davlat buyurtmasi loyihalarini amalga oshirishning borishi to'g'risidagi har choraklik hisobotlarni Respublika komissiyasiga taqdim etish uchun tayyorlashda foydalaniladi.

(37-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 2 oktyabrda 268-sonli [qarori](#) tahririda o'z o'rtasida R QHT, 2013 y., 40-son, 528-modda)

VIII. Yakuniy qoidalar

38. Loyihalarning o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi, shuningdek davlat buyurtmasi loyihalarini amalga oshirish uchun ajratiladigan mablag'lardan maqsadli foydalanish uchun javobgarlik ishchi organ zimmasida bo'ladi.

39. Davlat buyurtmasi loyihalarini amalga oshirish doirasida yaratilgan axborot tizimlari, axborot resurslari va maâ€™lumotlar bazalarini keyingi kuzatish va qoâ€™llab-quvvatlash, tayyorlanayotgan loyihalar (loyihalar guruhi) boâ€™yicha axborotning ishonchligi uchun javobgarlik loyihalar tashabbuschilari zimmasida boâ€™ladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va rivojlantirish boâ€™yicha loyihalarni amalga oshirish uchun davlat buyurtmasini shakllantirish va moliyalashtirish tartibi toâ€™gâ€™risidagi [Nizomga](#) ILOVA

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va rivojlantirish boâ€™yicha loyihalarni amalga oshirish uchun davlat buyurtmasini shakllantirish

SXEMASI

Bosqich Tadbirlar	Muddatlar	Masâ€™ullar
1-bosqich Ishchi organ davlat buyurtmasiga kiritish uchun takliflarni tayyorlash boâ€™yicha metodik koâ€™rsatmalarni davlat organlariga yuboradi.	har yili 1 avgustgacha	Ishchi organ
2-bosqich Loyiha tashabbuskorlari loyihalar boâ€™yicha takliflar va dastlabki axborotni tayyorlaydilar, yillik davr uchun davlat buyurtmasiga kiritish uchun ishchi organning koâ€™rib chiqishi uchun kiritadilar.	1 sentyabrgacha	Loyihalar tashabbuskorlari, ishchi organ
3-bosqich Ishchi organ axborotlashtirish sohasida rivojlantirish ustuvorliklariga muvofiq loyihalarni oâ€™rganib chiqadi va ularni Komissiyaning koâ€™rib chiqishi uchun taqdim etadi.	1 oktyabrgacha	Ishchi organ, Komissiya
4-bosqich Komissiya davlat buyurtmasi loyihalarini belgilangan tartibda koâ€™rib chiqadi, tanlab olingan va butlangan loyihalar davlat buyurtmasining manzilli qismiga kiritish uchun taqdim etiladi.	15 oktyabrgacha	Komissiya
5-bosqich Ishchi organ davlat buyurtmasining loyahasini tasdiqlash uchun Respublika komissiyasiga kiritadi.	20 oktyabrgacha	Ishchi organ, Respublika komissiyasi
6-bosqich Davlat buyurtmasining loyihasi Respublika komissiyasining protokoli qarori bilan tasdiqlanadi.	1 noyabrgacha	Respublika komissiyasi
7-bosqich Davlat buyurtmasini amalga oshirishning birinchi yiliga kiritiladigan yangi boshlanadigan loyihalar boâ€™yicha tanlov (tender) savdolari oâ€™tkaziladi.	noyabr â€™ yanvar	Ishchi organ, loyihalar tashabbuskorlari
8-bosqich Tasdiqlangan davlat buyurtmasi va oâ€™tkazilgan tanlov (tender) savdolariga muvofiq belgilangan tartibda loyihalarni amalga oshirish uchun shartnomalar tuziladi.	yanvar-fevral	Ishchi organ, loyihalar tashabbuskorlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi tizim integratorlari, tovarlarni (ishlar va xizmatlarni) etkazib beruvchilar

(ilova Oâ€™zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 17 dekabrda 365-sonli [qarori](#) tahririda â€™ Oâ€™ R QHT, 2015 y., 50-son, 628-modda)

Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 25 yanvardagi 18-son [qaroriga](#) 2-ILOVA

Vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va rivojlantirish uchun masâ€™ul boâ€™lgan ixtisoslashtirilgan tarkibiy boâ€™linmalarining shtatdagi xodimlarini moddiy ragâ€™batlantirish toâ€™gâ€™risida

NAMUNAVIY NIZOM

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Namunaviy nizom vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning (keyingi o'rinlarda tashkilotlar deb ataladi) zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va rivojlantirish uchun mas'ul bo'lgan ixtisoslashtirilgan tarkibiy bo'linmalarining (keyingi o'rinlarda ixtisoslashtirilgan bo'linmalar deb ataladi) shtatdagi xodimlarini moddiy rag'batlantirish tartibi va shartlarini belgilaydi.

Ushbu Namunaviy nizomning amal qilishi tashkilotlarning tarkibiy bo'linmalari (departament, boshqarma, bo'lim, xizmat, guruh, shoba) va tasarrufidagi tuzilmalar (davlat unitar korxonalar, shoba korxonalar, filiallar) shaklidagi ixtisoslashtirilgan bo'linmalarga joriy etiladi.

2. Ixtisoslashtirilgan bo'linmalarining shtatdagi xodimlarini moddiy rag'batlantirish lavozim maoshiga ustama haq to'lash tarzida amalga oshiriladi.

3. Ixtisoslashtirilgan bo'linmalarining shtatdagi xodimlariga ustama haq tegishli tashkilotlar rahbarlarining qarorlari bilan belgilanadi.

II. Ustama haq belgilash mezonlari

4. Quyidagilar zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va rivojlantirish uchun ustama haq belgilash mezonlari hisoblanadi:

tashkilotlarda qog'ozsiz hujjat aylanish ulushini kamida o'rtacha ichki 90 foiz, idoralararo aylanishda kamida 70 foiz ta'minlanishini hisobga olgan holda elektron hujjat aylanish tizimidan samarali foydalanish;

yuridik va jismoniy shaxslarga interaktiv davlat xizmatlarini ikki tomonlama yoki tranzaksion o'zaro hamkorlik shaklidagi 70 foizdan kam bo'lmagan mavjud interaktiv xizmatlar ta'minlanishini hisobga olgan holda joriy etish;

tashkilot rasmiy veb-saytining qonun hujjatlari talablariga kamida 80 foiz darajasida muvofiqligini ta'minlash;

tashkilotlarning markaziy apparatlaridagi lokal hisoblash tarmoqlarini yaratish uchun vazifalarni 100 foiz darajasida, hududiy va tasarrufdagi bo'linmalarda kamida 80 foiz bajarish;

axborot xavfsizligini ta'minlash;

tashkilotning axborot-kommunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha aniq asoslangan takliflar va tashabbuslar kiritish;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va rivojlantirishning davlat va idoraviy dasturlarida nazarda tutilgan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarish, boshqaruv va ish jarayonlarining samaradorligini oshirish imkonini beruvchi innovatsion va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish bo'yicha kompleks idoraviy loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

tashkilot axborot-kommunikatsiya infratuzilmasining uzluksiz ishlashini va uning ishida avariya holatlari, bekor turishlar va xatoliklar qolishlar imasligini ta'minlash;

idoraviy axborot resurslari va ma'lumotlar bazasini shakllantirish, joriy qilish va rivojlantirish;

Milliy axborot tizimi doirasida integratsiyalanadigan axborot tizimlari komplekslarini o'z vaqtida joriy qilish;

ixtisoslashtirilgan bo'linmalar shtatdagi xodimlarining kompyuter savodxonligi darajasi bo'yicha talablarga muvofiqligi uchun attestatsiyadan o'tkazish natijalari bo'yicha ijobiy baho olishi;

tashkilot xodimlarining kompyuter texnikasi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish malakasi va ko'nikmalarini oshirish bo'yicha dasturlarning o'z vaqtida bajarilishini tashkil qilish.

Ushbu bo'limda ko'rsatilgan mezonlar asosida har bir tashkilot axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va rivojlantirish holatidan kelib chiqqan holda ixtisoslashtirilgan bo'limlarning shtatdagi xodimlariga ustama haqlarni belgilash uchun o'z mezonlarini tasdiqlaydi.

III. Ustama haq belgilash tartibi

5. Tashkilot rahbariyati ixtisoslashtirilgan bo'limlarning shtatdagi xodimlariga ustama haqlarni ixtisoslashtirilgan bo'limlar boshliqlarining ushbu Namunaviy nizomning [II bo'limida](#) ko'rsatilgan holda ustama haqlarni belgilash taqdimnomalari asosida belgilaydi.

Ixtisoslashtirilgan bo'limlar boshliqlari uchun taqdimnomani axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va rivojlantirish masalalarini mutasaddilik qiluvchi tashkilot rahbarining o'rinbosari beradi.

6. Ustama haq ushbu ustama haq tayinlangan mezonlarga muvofiqligi ta'minlanmagan taqdirda, rahbarning mutasaddilik qiluvchi o'rinbosari, ixtisoslashtirilgan bo'lim boshlig'ining qo'yilgan vazifalarning bajarilmaganlik holatlari to'g'risida asoslangan tahliliy ma'lumotlar va materiallarni ilova qilgan holdagi asoslangan bildirishnomasi asosida tashkilot rahbarining qaroriga ko'ra belgilangan muddati tugashidan oldin bekor qilinishi mumkin.

7. Mehnat intizomining buzilishi, shuningdek ishlarning bajarilishi yoki erishilgan natijalar to'g'risida noto'g'ri axborotning taqdim etilishi ustama haqlarning belgilanishini rad etish yoki belgilangan ustama haqlarni bekor qilish uchun sabab bo'lishi mumkin.

Belgilangan ustama haq ixtisoslashtirilgan bo'limning shtatdagi xodimiga hayfsanlon qilingan taqdirda bekor qilinishi mumkin, bunda ustama haqni bekor qilish to'g'risidagi qaror hayfsanlon qilinishi to'g'risidagi qarorda aytib o'tilgan bo'lishi kerak.

IV. Ustama haq to'lashni moliyalashtirish miqdori va manbalari

8. O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan ixtisoslashtirilgan bo'limlarning shtatdagi xodimlariga ustamalar xodim lavozim maoshining 50 foizigacha miqdorda belgilanadi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish uchun mas'ul bo'lingan boshqa tashkilotlar o'zlarining moliyaviy holatidan kelib chiqqan holda shtatdagi xodimlariga ustamalarni mustaqil belgilaydilar.

(8-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 17 dekabrda 365-sonli [qarori](#) tahririda o'z O'z R QHT, 2015 y., 50-son, 628-modda)

9. Ixtisoslashtirilgan bo'limlarning shtatdagi xodimlariga ustama haqlarni to'lash tegishli tashkilotlarning mehnatga haq to'lash fondi hisobiga va uning doirasida amalga oshiriladi.

V. Yakuniy qoidalar

10. Ixtisoslashtirilgan bo'limlarning shtatdagi xodimlariga nisbatan tegishli tashkilotning mehnatga haq to'lash amaldagi tizimida ko'rsatilgan rag'batlantirish bo'lim yicha boshqa to'lovlar ham qo'llanishi mumkin.

11. Samarali mezonlarga muvofiq ustama haqlarni belgilash va to'lashning samarali mezonlarini belgilash uchun javobgarlik tegishli tashkilotlarning rahbarlariga yuklatiladi.

2017-09-30 14:44:18